

**“ILM, MA’RIFAT VA
RAQAMLI IQTISODIYOTNI
RIVOJLANTIRISHDA YOSH
XOTIN-QIZLARNING
INNOVATSION G‘OYA VA
TASHABBUSLARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
onlayn konferensiyasi materiallar**

TO‘PLAMI

**YOSHLAR NASHRIYOT UYI
TOSHKENT – 2020**

<i>Saminova Nazokat Xalimjanovna, Qalandarova Dono Usmonjanovna.</i> AYOLNING JAMIYAT VA OILA RAVNAQIDAGI O‘RNI.....	302
<i>Nodira Xodjayeva Sharipovna, Farangiz Eshqulova Zayniddin qizi.</i> AYOLLARNING SIYOSIY JARAYONLARDAGI MAVQEI	306
<i>Абдумаджидова Дилдора Рахматуллаевна.</i> РАДИКАЛЬНЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ РОЛИ ЖЕНЩИНЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ	309
<i>Мукумова Дилрабо Инатовна.</i> УПРАВЛЕНИЕ КАРЬЕРНЫМ РОСТОМ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ЛОЯЛЬНОСТИ	313
<i>Ahmedova Umidaxon Kadirjanovna.</i> XOTIN-QIZLAR FAOLLIGI – JAMIYAT RIVOJINING MUHIM OMILI.....	320
<i>G‘afforova Mavlyuda Qurbonboevna.</i> YOSH XOTIN-QIZLARNING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDAGI ROLI	323
<i>Kayumova Mexribonu Sheralievna.</i> YOSH XOTIN-QIZLARNING DAVLAT BOSHQARUVIDA KORPORATIV MADANIYATINI VA G‘OYAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	332

V SHO‘BA
YOSH XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI
QO‘LLAB-QUVVATLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR

<i>Sarvar Saidov Xayrullayevich, G‘ofurova Shaxribonu Komol qizi.</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGINI TAHLILI.....	339
<i>Dilafroz Akhmedova Elshodovna, Shakhrizoda Toshpulatova Shukhrat qizi.</i> THE IMPORTANCE OF BANK LOANS IN SUPPORTING YOUNG WOMEN’S ENTREPRENEURSHIP.....	347
<i>Shomurotova Nigora Nabijonovna.</i> XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGI- NING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MUAMMOLARI	353
<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna.</i> MILLIY IQTISODIYOTDA YOSH AYOL VA QIZLARNI TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA JALB ETISH CHORA-TADBIRLARI	358
<i>Очилова Хилола Фармоновна.</i> ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА СРЕДИ ЖЕНЩИН УЗБЕКИСТАНА	363
<i>Yaxshiyeva Mavluda Tursunovna.</i> XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA.....	368
<i>Tursunova Bibirajab.</i> AYOLLAR TADBIRKORLIGINING DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANISHI	372

XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASH DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA

Yaxshiyeva Mavluda Tursunovna

*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, “Universitet 3. 0” xalqaro
o‘quv, ilmiy-innovatsion tadqiqotlar markazi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: *Ushbu tezisda ayollarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga keng jalb etish, ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishning dolzarb jihatlari aks ettirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ayollar tadbirkorligi, kasanachilik, ijtimoiy-siyosiy faollik, oila instituti, bozor subyektlari, ijtimoiy himoya.*

O‘zbekistonda jamiyatni modernizasiyalash va demokratik yangilash, jamiyat va davlat qurilishi jarayonlarida xotin-qizlar rolini kuchaytirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugunda barcha sohalardagi kabi mehnat bozorida ham, aynan, xotin-qizlar masalalariga alohida urg‘u berilib, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ayollar uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, ularning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish masalasiga oilalar farovonligini ta‘minlash hamda daromad manbalarini shakllantirishning asosiy omili sifatida qaralmoqda.

Hozirgi davrga kelib, yer yuzidagi ayollarning 0,4% i O‘zbekistonda yashaydi. Mamlakatimiz aholisining 15377,8

nafardan ziyodini ayollar tashkil etib, bu jami aholining 50,2%ni qamrab oladi. Boshqacha statistika bo'yicha aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda 15-65 yoshgacha bo'lganlarning 50,3% ni ayollar tashkil etadi. Shunday ekan, ayollar jamiyatimizning rivojlanishida salmoqli o'rinni egallab kelmoqdalar. Aniqrog'i, ayollar o'z mehnati bilan bozor subyektlari tarkibida ishtirok etib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shib bormoqdalar.

Shunday ekan, ayollarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda hunarmandchilik sohasidagi intilishlari, milliy an'analarimizni tiklashga va urf-odatlarimizni keng targ'ib etilishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. E'tirof etish kerakki, bugungi globallashuv jarayonlari davom etayotgan bir davrda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va ushbu sektorda ayollar mehnatining rolini oshirish masalalari davlatimiz iqtisodiyotining har tomonlama yuksalishida alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ayollar mehnatidan foydalanish va bunday mehnatni samarali amalga tatbiq etish maqsadida bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va shular asosida iqtisodiyotni boshqarishni yangicha tashkil etishning eng zamonaviy uslub va qulayliklariga erishilmoqda.

Jumladan, *“O‘zbekiston Prezidentining 2018 fevral oyidagi “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chorra-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.*

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya

qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohaslarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillash-tirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Ushbu maqsadga er-ishish uchun O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlan-tirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yunalishlari" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish ko'zda tutilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda ayollar bilan ishlash davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi, biroq O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida mavjud ayrim kamchilik va muammolar ayol-lar mehnatidan foydalanishdagi jarayonlarda to'siq bo'layot-gan asosiy sabablardandir. Ushbu muammolarni kamaytirish va ayollarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga keng jalb etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

– ayollarning ijtimoiy himoyasini zamonaviy andozalar-da joriy etish;

– tadbirkorlik sohasida ayollar savodxonligini oshirish, malaka darajasini yaxshilash maqsadida turli kurslarni (im-tiyozli) tashkil etish va o'quv markazlari faoliyatini kengay-tirish;

– mehnatda band bo'lgan ayollarni qo'llab-quvatlashda imtiyozli yondashuvlarni qo'llash, mehnat birjalarida mehnat bilan band bo'lmagan ayollarni ish bilan ta'minlash tizimida alohida tadqiqotlar olib borish hamda shu asosda bandlik xiz-matini yaxshilash;

– qishloq joylarida yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun mulkka egalik xissini kuchay-tirish;

– kasanachilikni rivojlantirish asosida yangi ish joy-larini barpo etish va bunda zamonaviy sohalarni o'zlash-tirish.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizning oqila, orasta,

ishbilarmon va tadbirkor ayollari har bir soha rivojiga munosib hissalarini qo‘shib borsalar, mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada rivojlanib, yuqori samaralarga erishib borishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Mamlakatning demokratik yangilanishi hamda modernizatsiyasida ayollarning roli: O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot” nomli xalqaro konferensiya. O‘zbekiston Respublikasi ayollar qo‘mitasi. 08. 11. 2018-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining – O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi 4.2-band.